

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 7

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 348 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Kopak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalarini marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari	16
Qo'ng'iroqboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna	
Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalarda omilidan foydalanish istiqbollari	26
Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili	32
Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili	37
Turgunov Odilbek Maripovich	
Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi	41
I. Axmedov	
Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari.....	46
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi.....	54
Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish	59
Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich	
O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni.....	65
Baymanova Mavlyuda Djurayevna	
The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan	70
Alimov Damirjon Odilovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni.....	76
Jusupova Anjim Tansiqbaevna	
Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	82
Sohibjamol Abirkulova	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdaining innovatsion usullardan foydalanish	87
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va auditi bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari.....	92
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi budjetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi.....	97
Abdulxayeva Shahnova Muxammadiyevna	
Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli.....	104
J. J. Yaxshilikov	
Сравнительный анализ состояния сферы услуг в регионах Андижанской области.....	109
Мусабоев Рустам Алижонович	
Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida.....)	114
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich	
Banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini takomillashtirish yo'llari.....	118
Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich	



Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы	122
Раупова Муҳлисахон Ибраҳимжон кизи, Мамбетова Мадина Зоҳид кизи, Алижонова Малика Алижон кизи, Ҳақимова Нигора Бахтиёрвна	
Investment Management is an Important Factor of Economic Development.....	127
Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon	
O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari.....	130
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish.....	136
Toyirov Yunus Alamovich	
Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning shakllanishi.....	143
Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	
Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash.....	148
Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li	
Budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazorat qilishni rivojlantirish yo'llari.....	152
Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna	
QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi.....	157
Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich	
O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili	162
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida muqobil energiya vositalaridan foydalanib ma'lumot almashinish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari	170
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot	
Analysis of the theoretical foundations of sustainable economic development at regional level	175
Khudayorova Munira Omonboy kizi	
Soliq ma'murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari	182
Muxtorov Zokir Sayfulla o'g'li, Karimov Ilhom Anorboy o'g'li, Homidov Asrorbek Tohirjon o'g'li, Axmedova Shoxista G'ayrat qizi	
Sirdaryo viloyatining investitsiya muhiti zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	187
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	191
Razzoqov Bexzod Gofurovich	
Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment.....	196
Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li	
Pul oqimlarini guruhlash mezonlari bo'yicha tasniflashni kengaytirish.....	202
Atamurodov Saidmurod Yaxyoevich	
Iqlim o'zgarishlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirining ilmiy-nazariy tahlili	208
Ashrafjon Elov	
Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati	214
Abramatov Eldor Toshmamatovich, Alimov Abduraxon Alxamiddin o'g'li, Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li, Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Tijorat banki daromadlari - moliyaviy barqarorlikni omili sifatida.....	218
Umarov Davron Shavkatovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar barqarorligini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	223
Masharipova Manzura Alimbayevna, Rahimov Mirjalol Sultonboy o'g'li	
Innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdoni rivojlantirish yo'nalishlari.....	227
Saparova Mohira Alisher qizi, Abdullayev Ilyos Sultanovich	



Experience of foreign countries in youth labor market research 231 Asqarova Muhabbat Ibraximovna	231
Xorij mamlakatlarida ijtimoiy tibbiy sug'urta badallari qiymatlarini taqqoslash 235 Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	235
O'zbekistonda alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi tahlili 241 Eshmatov Sirojiddin Tog'aymurodovich	241
Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro tasnifining vujudga kelishi ilg'or tajribalari 247 Yuldashev Iskandar Bahromovich	247
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран 253 Буранова Лола Вахобовна	253
Davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari xarajatlari hisobini takomillashtirish 263 Abdurahmanov Otabek Patidinovich	263
"To'qimachilik sanoatini rivojlantirish yo'lidagi muammolar va yechimlar" 270 Otaxanova Umida Olim qizi	270
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari 275 Sayfulina Alfira Feratovna	275
Oliy va xususiy ta'lim muassasalarida ta'lim menejmentini qo'llash hamda alohida mexanizmlarining tahlili 281 Teshaev Hotamjon Ixtiyor o'g'li, Narzullayeva Gulchehra Salimovna	281



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Sayfulina Alfira Feratovna

Navoiy davlat pedagogika instituti
geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
kafedrasining katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari, raqamli iqtisodiyotning mintaqalar infratuzilmasiga o'zaro ta'siri, mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish yo'llari, raqamli iqtisodiyotning mamlakatlar rivojiga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, tadqiqot ishida raqamlashtirish darajasini va uning mintaqalar infratuzilmasini rivojlanishiga ta'sirini baholash uchun turli statistik usullardan, ya'ni ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qilish, integral ko'rsatkichni hisoblash, jahon statistikasidagi reytinglar ko'rsatkichlaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Infratuzilma, mintaqalar infratuzilmasi, raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, raqamli infratuzilma, raqamli texnologiyalar.

Abstract: This article talks about the prospects of developing the infrastructure of the regions in the conditions of the digital economy, the interaction of the digital economy with the infrastructure of the regions, the ways of developing the infrastructure of the regions, the influence of the digital economy on the development of the countries. Also, in order to evaluate the level of digitization and its influence on the development of regional infrastructure, various statistical methods were used in the research work, i.e., analysis of the dynamics of indicators, calculation of the integral indicator, rating indicators in world statistics.

Key words: Infrastructure, regional infrastructure, digital economy, digitization, digital infrastructure, digital technologies.

Аннотация: В данной статье рассматриваются перспективы развития инфраструктуры регионов в условиях цифровой экономики, взаимодействие цифровой экономики с инфраструктурой регионов, пути развития инфраструктуры регионов, влияние цифровой экономики на развитие стран. Также в исследовательской работе использовались различные статистические методы оценки уровня цифровизации и ее влияния на развитие инфраструктуры регионов, а именно анализ динамики показателей, расчет интегрального показателя, показатели рейтингов в мировой статистике.

Ключевые слова: инфраструктура, инфраструктура регионов, Цифровая экономика, цифровизация, цифровая инфраструктура, цифровые технологии.

KIRISH

Hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning zamonaviy bosqichi mamlakatlar va mintaqalarning asosiy raqobatbardosh ustunligi mintaqaviy iqtisodiyotda raqamli iqtisodiyotning rivojlanganligi, inson resurslari miqdori va sifati bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bunday vaziyatda raqamli iqtisodiyot orqali odamlarning hayotiy faoliyati va inson salohiyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish masalasi birinchi o'rinda turadi.

Shu nuqtayi nazardan, mintaqaning ijtimoiy infratuzilmasining alohida ahamiyati inson salohiyatini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratish va kengaytirish qobiliyati bilan bog'liq bo'lib, bu mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Biroq ba'zi hududlarda uzoq vaqt davomida mintaqalarning infratuzilma obyektlarini saqlash imkoniyatlari cheklanganini, asosiy vositalarning eskirishi darajasi oshganini, ijtimoiy infratuzilma obyektlaridan foydalanish yo'nalishi o'zgarganini, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifati pasayganini ko'rishimiz mumkin. Aksincha, boshqa mintaqalarda esa infratuzilmani rivojlangan holatlarini ko'rishimiz mumkin. Bu, asosan, mintaqalarda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali raqamlashtirish jarayonlarini olib borish bilan bog'liq bo'lib qolmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish uchun har bir sohada zamonaviy raqamli texnologiyalar, mashinani o'rganish (machine learning), sun'iy intellekt, bulutli hisoblash, blokcheyn va katta ma'lumot (Big Data) kabi axborot infratuzilmalari qo'llanmoqda. Mintaqaviy infratuzilmalarda raqamli iqtisodiyotni qo'llanilishi raqamli transformatsiyalar, raqamli yangilanishlar va integratsiyalashgan innovatsion xizmatlarni osonlashtiradigan infratuzilma tizimini hosil qiladi. Yangi avlod axborot texnologiyalari evolyutsiyasiga asoslangan axborot infratuzilmasi yangi infratuzilmaning ajralmas qismi hisoblanadi. Axborot infratuzilmasidan olinadigan imtiyozlar nafaqat axborot texnologiyalariga sarmoya kiritish bilan cheklanib qolmay, balki ko'plab sohalarda ijobiy tashqi ta'sirlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.



Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, raqamli infratuzilmasini qurish – zamonaviy bilimlar tarqalishi jarayonlari bilan birga keladi. U korxonalar o'rtasida bilimlarning ongsiz va nafaol tarqalishi va kirib borishini rag'batlantiradi va bilimlarni tarqatish va ulardan foydalanishni tezlashtiradi. Mintaqalardagi korxonalarining axborotlashtirishga sarmoya kiritishi, shunga mos ravishda korxonalarni axborotlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi. Ushbu jarayonlar sanoatda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot sotish narxini pasaytirishi, iste'mol talabini rag'batlantirishi va shu bilan ishlab chiqarish ko'lami va ishlab chiqarish hajmining kengayishiga yordam beradi. Bunga qo'shimcha ravishda, u ishlab chiqarish texnologiyasini yanada ilmiy va oqilona, ishlab chiqarishni boshqarish jarayonini yanada qulay va samarali qiladi, shu bilan ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda mintaqaviy va milliy darajadagi infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'liq masalalar XX asrdayoq ko'rib chiqila boshlandi. Amerikalik iqtisodchi P.Rozenshteyn-Rodan birinchilardan bo'lib infratuzilmani aholining ehtiyojlarini qondiradigan iqtisodiyot tarmoqlarida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan sharoitlar to'plami sifatida aniqladi. Shundan keyin xorijlik R.Nurkse, A.Xirshman, A.Yangson, shuningdek, rossiyalik olimlar I. G.Aleksandrov, G.M.Krijjanovskiy B.V.Kuybishchev, A.E.Probst, S.G.Strumilin, S.A.Xaynman kabi iqtisodchilarning asarlarida "infratuzilma" tushunchasining mazmuni, uning ishlash xususiyatlari namoyon bo'ldi¹.

Infratuzilmaning tarkibi uning ko'lami, geografiyasi, tarmoq ixtisoslashuvi va uni hududiy-demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'muriy-siyosiy qiymat sifatida tavsiflovchi boshqa ko'plab omillar bilan belgilanadi. Shuning uchun ko'plab tadqiqotchilar infratuzilmani rivojlantirishning ko'p bosqichli tizimiga ishora qiladilar. Y.Y.Suslova o'z ilmiy tadqiqot ishida "infratuzilma har bir ishlab chiqarish usuliga xosdir, shuning uchun u infratuzilmani rivojlantirish darajalari bo'lgan megatizim (jahon iqtisodiyoti), makrotizim (milliy iqtisodiyot), mezotizim (mintaqaviy iqtisodiyot, sanoat), mikrotizim (individual korxonalar darajasi) va nanotizim (iqtisodiy shaxsning faoliyati) kabilarda o'rganiladi" – deb ta'kidlaydi².

Y.V.Zadvorniy tadqiqotlarida "infratuzilma xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlaydi, ya'ni xalqaro, makro va mezo darajalarida hamda iqtisodiyot tarmoqlari darajasida va korxonalar darajasida ta'minlaydi" – qayd etadi³. S.S.Nosova tahlil darajasiga qarab infratuzilmani uchta darajada ko'rib chiqadi: mikro, o'rta va makro daraja⁴.

G.M.Aubakirova, F.M.Isatayeva, A.S.Kuatova o'z tadqiqot ishlarida raqamli texnologiyalar rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ijtimoiy platformalarni o'zgartirish jarayoniga ta'siri sifatida baholaydilar. Ularning ta'kidlashicha, kiber makon va raqamli muhitni tartibga solish masalalari hali ham kam o'rganishi kerak va munozarali bo'lib qolmoqda. Ilmiy sohada alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar, tarmoqlar va hududlarning innovatsion o'sishiga erishish maqsadida kompaniyalarning raqamli salohiyatini rivojlantirish masalalariga yetarlicha e'tibor qaratishi kerakligini ham aytib o'tishadi⁵.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy infratuzilmalarni rivojlantirish turli xil yangi axborot texnologiyalarining integratsiyalashgan qo'llanilishi va bog'langan ishlashi natijasida hosil bo'lgan organik yaxlitlikni ifodalaydi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida amalga oshirilayotgan infratuzilmalar ayni vaqtda "raqamli infratuzilma" atamasi bilan ataladigan bo'lib qoldi. Raqamli iqtisodiyot qo'llanilayotgan mintaqaviy infratuzilma an'anaviy infratuzilmani o'zgartirish va modernizatsiya qilishni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olganligi sababli

1. Логачева, Н.М. Развитие социальной инфраструктуры регионов РФ: теоретические, методологические, прикладные аспекты: Автореферат. Челябинск-2013. – 45 с.
2. Сулова Ю. Ю. Рыночная инфраструктура: теория, методология, проблемы развития: воспроизводственный аспект : дисс... д-ра экон. наук: 08.00.01 / Сулова Юлия Юрьевна - Красноярск, 2009 - 390 с. ил.
3. Задворный Ю.В. Критерии оценки развития транспортной инфраструктуры региона // Российское предпринимательство. –2011. –№ 1 Вып. 1 (175). –с. 168-168.
4. Носовой С.С. Экономическая теория. – М.: Кнорус, 2008.
5. Аубакирова Г.М., Исатаева Ф.М., Куатова А.С. Цифровизация промышленных предприятий Казахстана: потенциальные возможности и перспективы // Вопросы инновационной экономики. – 2020. – № 4. – с. 2251-2268.



zamonaviy infratuzilmaning iqtisodiy o'sish va mintaqaviy barqaror rivojlanishga ijobiy ta'siri raqamlash jarayonlari bilan mos keladi.⁶


Raqamli iqtisodiyot va aqlli jamiyatga bo'lgan talab tufayli raqamli infratuzilma investitsiyalari uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun zarurdir. An'anaviy infratuzilma investitsiyalari bilan solishtirganda, raqamli infratuzilma investitsiyalari yanada mustahkam bozor yo'nalishi va yuqori iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarga ega. Boshqacha aytganda, u yuqori texnologiya mazmuni va sanoatning kirib borish tezligi, shuningdek, sezilarli tarqalish va harakatlantiruvchi ta'sirga ega bo'lib, texnik innovatsiyalar, sanoat tuzilmasi va mahsuldorlikka ta'siri orqali iqtisodiy o'sish sifati, iqtisodiy o'sishning shartlari, jarayonlari va natijalari bilan ijobiy qayta aloqa mexanizmini yaratadi.⁷

Raqamli iqtisodiyot deganda, odatda, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, sotish va iste'mol qilish, shuningdek, elektron tijorat, internet va internet iqtisodiyotidan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat tushuniladi. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyalarni, zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish iqtisodiyotning yangi bilimga yo'naltirilgan tarmoqlarini paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Raqamli iqtisodiyot keng tarqalishi bilan u turli tarmoqlar, jumladan, iqtisodiy sektordagi bo'shliqlarni bartaraf etish va dolzarb muammolarni hal qilish imkonini berdi. Bunda, asosan, yangi ish o'rinlari va bozorlarni yaratish, moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, samaradorlik va shaffoflikni oshirish foydasi bilan raqamli texnologiyalar va platformalar global muammolarni hal qilish va xalqaro voqealarga javob berishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.⁸

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, raqamli iqtisodiyotning tarkibiy qismlariga elektron tijorat, elektron hukumat tizimi, ishlab chiqarish jarayonlariga "aqlli" texnologiyalarni joriy etish, xizmat ko'rsatish sohalarida "aqlli shahar", "xavfsiz shahar" tizimlarini yaratish va boshqalar kiradi. Axborot-kommutatsiya texnologiyalarining (AKT) rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasi odatda turli ko'rsatkichlar bilan baholanadi:

- raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi;
- AKT sohasiga investitsiyalar hajmi;
- Internet tezligi, uning mamlakat hududini qamrab olishi va aholi tomonidan foydalanish imkoniyati;
- elektron tijoratning rivojlanish darajasi;
- tizimdagi davlat xizmatlarining ulushi;
- elektron hukumat;
- AKT sohasidagi mutaxassislar tomonidan tashkilotlarning xavfsizligi va boshqalar.⁹

Har bir mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining o'zgarishiga olib keladi. Bu holat har qaysi davlatga har xil darajada ta'sir qiladi. 2023-yilda bir qancha mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi quyidagicha ifodalangan (1-rasm):



1-rasm. Raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi¹⁰

6 Raicu, S.; Costescu, D.; Popa, M.; Dragu, V. Dynamic Interrelations between Transport/Traffic Infrastructures and Territorial Systems: From Economic Growth to Sustainable Development. Sustainability 2021, 13, 11951.

7 Wu, J.; Zhang, Y.; Shi, Z. Crafting a Sustainable Next Generation Infrastructure: Evaluation of China's New Infrastructure Construction Policies. Sustainability 2021, 13, 6245.

8 Williams, L. D. Concepts of Digital Economy and Industry 4.0 in Intelligent and information systems. International Journal of Intelligent Networks, 2, 2021. 122–129 p.

9 Nagle F., Seamans R., Tadelis, S. Transaction Cost Economics in the Digital Economy: A Research Agenda. Harvard Business School working paper. 2020. 210 p.

10 Rossiyaning federal davlat statistika xizmati rasmiy <https://rosstat.gov.ru/> saytidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Yuqoridagi jadvaldan shuni ko'rishimiz mumkinki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2,4 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, 7–8% o'rtacha optimal ko'rsatkich hisoblanadi, masalan, Buyuk Britaniyada – 12,4%, Janubiy Koreyada – 8%, Xitoyda – 6,9%, Hindistonda – 5,6%, Rossiyada esa – 3,2%. %, Qozog'iston – 3,9%ni tashkil qiladi.

Raqamli itisodiyot rivojlanishi bilan mintaqalar infratuzilmalarini rivojlantirish istiqbollari ham kengaydi. Raqamli itisodiyot sharoitida mintaqalar infratuzilmalarining rivojlanishi mintaqaning barcha hududlarining bog'lanishi bilan bog'liq. Fuqarolarni sog'liqni saqlash, bozorlar, ish o'rinlari va maktablar bilan bog'laydigan yo'l, tunnel yoki ko'prik qurilishi qishloq aholisining hayoti va turmush darajasini tubdan yaxshilash imkonini beradi. Bu aloqalar butun mintaqalarda yangi imkoniyatlar yaratadi. Zaif infratuzilma mamlakatning o'sishiga va jahon iqtisodiyotida savdo qilish qobiliyatiga to'sqinlik qiladi.

Mintaqalarda texnologik taraqqiyot va ularning ilovalari oldinga siljib borar ekan, ular barcha bozorlarda hal qilinishi kerak bo'lgan yangi ehtiyojlarni va yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Raqamli iqtisodiyot barcha trafikni tashish va barcha ma'lumotlarni qayta ishlash uchun etarli infratuzilmaga bog'liq. Infratuzilma daromadni oldindan ko'rish qobiliyatini xohlaydigan investorlarni talab qiladi. Imtiyozlar geografiya, iqtisod, siyosat va imkoniyatlarga ko'ra notekis yig'iladi.

Mintaqa infratuzilmalarining raqamli iqtisodiyot orqali rivojlanishida infratuzilmalar aholi zichligi, iqtisodlari va texnologiya ehtiyojlari bo'lgan bozorlar va hududlarni qamrab oladi. Har bir mamlakat va mamlakat ichidagi har bir mintaqaga o'z muammolariga duch keladi va har biri moslashtirilgan echimlar, biznes modellari va hukumatning ishtiroki darajasini talab qiladi. Ba'zi hududlarda borish qiyin bo'lgan uylarni ulash, mavjud texnologiyalar va bozor tuzilmalariga asoslanib, foyda keltirishi yoki hech bo'lmaganda zararsiz bo'lishi mumkin. Boshqa sohalar nodavlat tashkilotlar va xususiy kompaniyalar kabi manfaatdor tomonlarning yordamiga, shuningdek, talab va taklifning odatiy qonunlaridan tashqariga chiqadigan muammolarga innovatsion yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatiga muhtoj bo'ladi.

Turli mintaqaga infratuzilmasidagi vaziyatlar har xil bo'lgani uchun ularni raqamlashtirish va shu asosida rivojlantirish uchun strategiyalar ishlab chiqish kerak. Raqamli iqtisodiyot orqali mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish uchun bir qancha strategiyalar qo'llanilishi mumkin:

1-jadval. Raqamli iqtisodiyot orqali mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish strategiyalari¹¹

№	Strategiya	Strategiyada bajariladigan vazifalar
1	Keng polosali internet tarmog'ini kengaytirish	Tez va ishonchli internet ulanishi mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarurdir. Keng polosali internet tarmog'ini kengaytirish qishloq va shaharlarni raqamli xizmatlardan foydalana olishiga yordam beradi.
2	Raqamli ta'lim va ko'nikmalar	Mahalliy aholining raqamli ko'nikmalarini oshirish infratuzilmani rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim dasturlari va kurslar orqali aholini raqamli texnologiyalarni qo'llashga o'rgatish muhimdir.
3	Elektron hukumat tizimlari	Davlat xizmatlarini raqamli shaklda taqdim etish mintaqalarda boshqaruv samaradorligini oshiradi. Elektron hukumat tizimlari orqali fuqarolar va tadbirkorlar ko'plab xizmatlardan onlayn foydalanishlari mumkin bo'ladi.
4	Raqamli sog'liqni saqlash tizimi	Teleditsina va elektron tibbiy kartalar orqali sog'liqni saqlash xizmatlarini yaxshilash mumkin. Bu qishloq joylarda yashovchi aholiga yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalana olish imkonini beradi.
5	Raqamli savdo platformalari	Mahalliy tadbirkorlar va fermerlar uchun raqamli savdo platformalari yaratish, ularga o'z mahsulotlarini kengroq bozorga chiqarish imkonini beradi.
6	IoT (Internet of Things) texnologiyalari	IoT qurilmalari orqali infratuzilmani samarali boshqarish mumkin. Masalan, aqlli yoritish tizimlari, suv va energiya ta'minoti monitoringi kabi.
7	Raqamli bank va moliyaviy xizmatlar	Mobil bank va elektron to'lov tizimlarini rivojlantirish orqali mintaqalar moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish mumkin.
8	Katta ma'lumotlar (Big Data) va sun'iy intellekt	Katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda, infratuzilmani rivojlantirish va boshqaruvni optimallashtirish mumkin. Bu orqali transport tizimi, urbanizatsiya, ekologik monitoring va boshqa sohalarda samaradorlikni oshirish mumkin.

Bu strategiyalar raqamli iqtisodiyot orqali mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirishga yordam beradi va bu hududlarda yashovchi aholi hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

11 Pan, X.; Guo, S.; Li, M.; Song, J. The effect of technology infrastructure investment on technological innovation – A study based on spatial durbin model. Technovation 2021, 107 p.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mintaqalar infratuzilmasi to'g'ridan-to'g'ri moddiy boyliklarni yaratmaydi, u tarmoqlararo xususiyatga ega va ishlab chiqarish tarmoqlari, mintaqalar va davlatlar o'rtasida integratsiya funksiyasini bajaradi. Har xil turdagi infratuzilmaning holati va rivojlanish istiqbollari har qanday hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mintaqa iqtisodiyotining barqaror ishlashi to'g'ridan-to'g'ri unda ishlab chiqarish va raqamli infratuzilmaning oqilona rivojlanishi bilan bog'liq. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyati ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan unumli foydalanishni talab qiladi.

Biz taklif o'rniida raqamli iqtisodiyot orqali mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish uchun quyidagi asosiy ishlar amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz:

1. Keng polosali internet tarmog'ini kengaytirish va uni yana rivojlantirish kerak. Bunda quyidagi imkoniyatlar paydo bo'ladi:

- *Tezkor va keng qamrovli internet hosil bo'ladi:* Qishloq va shahar hududlarida yuqori tezlikdagi internet ulanishlarini ta'minlanadi. Bu mintaqadagi barcha sohalarda raqamli xizmatlardan foydalanish imkonini oshiradi;
- *Internet bilan bog'liq infratuzilmalar loyihalari amalga oshiriladi:* Optik tolali kabellar va boshqa ilg'or texnologiyalarni joriy qilish orqali internet infratuzilmasi yaxshilanadi.

2. Elektron hukumat tizimini rivojlantirish kerak. Buni amalga oshirish uchun quyidagi ishlarni bajarish kerak:

- *Elektron xizmatlarni yaxshilash kerak:* Davlat xizmatlarini raqamli shaklda taqdim etish, jumladan soliq to'lovlari, hujjatlarni rasmiylashtirish, litsenziyalar olish kabi xizmatlarni yanada takomillashtirish kerak;
- *Ma'lumotlar bazalarini takomillashtirish kerak:* Davlat ma'lumotlar bazalarini raqamlashtirish va ularni onlayn foydalanish uchun ochiq qilish hamda uni kuchaytirish kerak chunki ma'lumot bazalarisiz raqamli iqtisodiyot ishlamaydi va bunda mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirib bo'lmaydi.

3. Raqamli savdo platformalari ko'paytirish va ularni rivojlantirish kerak:

- *Elektron tijorat tizimini yanada rivojlantirish kerak:* Mahalliy tadbirkorlar, fermerlar va oddiy fuqarolarga ham mahsulotlarini onlayn sotish imkonini beruvchi platformalar yaratish va ularda kiberxavfsizlik tizimini rivojlantirish kerak;
- *Bozor kengayishiga imkoniyatlar yaratib berish kerak:* Raqamli savdo orqali mahsulotlarni milliy va xalqaro bozorga chiqarish imkoniyatini oshirish kerak.

4. IoT (Internet of Things) texnologiyalarini rivojlantirish kerak. Buni amalga oshirish uchun quyidagi ishlarni bajarish kerak:

- *Aqlli shahar loyihalarini takomillashtirish kerak:* Aqlli yoritish, suv ta'minoti monitoringi, komunal to'lovlarni raqamli boshqarish kabi tizimlarni joriy qilish va ularni takomillashtirish kerak;
- *Aqlli qishloq xo'jaligi loyihalarini takomillashtirish kerak:* Aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalari orqali hosildorlik va samaradorlikni oshirish kerak.

5. Raqamli bank va raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish kerak. Buni amalga oshirish uchun quyidagi ishlarni bajarish kerak:

- *Mobil banking tizimlarini yanada kuchaytirish kerak:* Qishloq joylarda bank xizmatlaridan foydalanishni kengaytirish uchun mobil banking tizimlarini rivojlantirish kerak;
- *Elektron to'lov tizimlari takomillashtirish kerak:* Elektron to'lov tizimlarini yana takomillashtirish va kiber hujumlardan ularni himoya qilish kerak.

6. Katta ma'lumotlar (Big Data) bazasini va sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish kerak.

Buni amalga oshirish uchun quyidagi ishlarni bajarish kerak:

- *Ma'lumotlarni tahlil qilish orqali boshqaruv tizimini rivojlantirish kerak:* Katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib, infratuzilmani boshqarish va rivojlantirish ishlarini amalga oshirish kerak;
- *Samaradorlikni oshirish uchun bu texnologiyalardan unumli foydalanish kerak:* Transport tizimi, urbanizatsiya, ekologik monitoring va boshqa sohalarda sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida samaradorlikni oshirishni yo'lga qo'yish kerak.

Yuqorida keltirilgan ishlar amalda o'z ifodasini topishi bilan raqamli iqtisodiyot orqali mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirishga yordam beradi va ushbu hududlarda yashovchi aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi va ularning turmush faravonligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-apreldagi "Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish jarayonlarini samarali tashkil etishning qo'shimcha choralarini to'g'risida"gi PQ-165-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-6902387>.



2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 25.12.2023 йилдаги ПҚ-404-сон қарори, lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. lex.uz.
4. Логачева, Н.М. Развитие социальной инфраструктуры регионов РФ: теоретические, методологические, прикладные аспекты: Автореферат. Челябинск-2013. – 45 с.
5. Суслова Ю.Ю. Рыночная инфраструктура: теория, методология, проблемы развития: воспроизводственный аспект: дис. ... д-ра экон. наук: 08.00.01 / Суслова Юлия Юрьевна – Красноярск, 2009-390 с. ил.
6. Задворный Ю.В. Критерии оценки развития транспортной инфраструктуры региона // Российское предпринимательство. – 2011.– № 1. Вып. 1 (175). – с. 168-168.
7. Носовой С.С. Экономическая теория. – М.: Кнорус, 2008.
8. Аубакирова Г.М., Исатаева Ф.М., Куатова А.С. Цифровизация промышленных предприятий Казахстана: потенциальные возможности и перспективы // Вопросы инновационной экономики. – 2020. – № 4. – с. 2251-2268.
9. Raicu, S.; Costescu, D.; Popa, M.; Dragu, V. Dynamic Interrelations between Transport/Traffic Infrastructures and Territorial Systems: From Economic Growth to Sustainable Development. Sustainability 2021, 13, 11951.
10. Wu, J.; Zhang, Y.; Shi, Z. Crafting a Sustainable Next Generation Infrastructure: Evaluation of China's New Infrastructure Construction Policies. Sustainability 2021, 13, 6245.
11. Williams, L. D. Concepts of Digital Economy and Industry 4.0 in Intelligent and information systems. International Journal of Intelligent Networks, 2, 2021. 122–129 p.
12. Nagle F., Seamans R., Tadelis, S. Transaction Cost Economics in the Digital Economy: A Research Agenda. Harvard Business School working paper. 2020. 210 p.
13. Pan, X.; Guo, S.; Li, M.; Song, J. The effect of technology infrastructure investment on technological innovation – A study based on spatial durbin model. Technovation 2021, 107 p.
14. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.
15. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.
16. <https://rosstat.gov.ru> – Rossiyaning federal davlat statistika xizmati rasmiy sayti.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

